



“BOBURNOMA” MATNIDAGI HARBIY TERMINLARNING INGLIZCHA TARJIMALARIDA IFODALANISH

Egamnazarov Jahongir

Namangan Texnika universiteti tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20422907>

Tarjima jarayonida harbiy terminlarni to‘g‘ri va adekvat ifodalash masalasi tarjimashunoslikning muhim muammolaridan biridir. Ayniqsa, tarixiy matnlarda uchraydigan terminlar o‘zining semantik murakkabligi va kontekstual xususiyatlari bilan ajralib turadi. Shu jihatdan, “Boburnoma” matnidagi harbiy terminlarning inglizcha tarjimalarida ularni qayta tiklash hamda ekvivalentlikni ta‘minlash masalalari alohida ilmiy yondashuvni talab etadi. Tarjimalar o‘rtasidagi leksik-semantik tafovutlarni faqat tarjimonning individual uslubi bilan izohlash yetarli emas; bu jarayonda tarjima yaratilgan davr va adabiy tilning rivojlanish darajasi ham muhim omil hisoblanadi. Shu sababli har bir tarjima o‘z davrining mahsuli sifatida qaraladi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi “Boburnoma” matnidagi harbiy terminlarning inglizcha tarjimalarda ifodalanish usullarini aniqlash hamda ularning leksik-semantik xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot materiali sifatida asarning W.Erskin, A.S.Beverij va W. M. Tekston tomonidan amalga oshirilgan inglizcha tarjimalari tanlab olindi. Tahlil jarayonida qiyosiy, leksik-semantik hamda kontekstual tahlil usullaridan foydalanildi.

Amaliy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, harbiy terminlarning tarjimasida turli strategiyalar qo‘llanadi va bu strategiyalar ko‘pincha terminning semantik murakkabligi hamda uning matndagi funksional yukiga bog‘liq holda tanlanadi. Xususan, *g‘ul* termini Erskin variantida *ghūl* shaklida transliteratsiya qilinib, *centre* orqali izohlanadi. Bu yondashuv terminning asl shaklini saqlash bilan birga uning ma‘nosini ham o‘quvchiga tushunarli qilishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, uning tarkibiy qismlari – *o‘ng qo‘l* va *so‘l qo‘l* birliklari *Ung-kūl* va *Sūl-kūl* shaklida berilib, harbiy tuzilmaning ichki ierarxiyasi terminologik darajada saqlab qolingan.

Beverij tarjimasida esa izohli tarjima ustunlik qiladi. U ayrim terminlarni aslyat shaklida qoldirib, ularning ma‘nosini qavs ichida tushuntiradi. Masalan, *qalb* va *g‘ul* terminlari birgalikda berilib, ularning semantik yaqinligi va funksional umumiyliigi izoh orqali ochib beriladi. Bu esa tarjimonning nafaqat tarjima, balki tushuntirish vazifasini ham bajarayotganini ko‘rsatadi.

Tekston tarjimasida esa ayrim hollarda fonetik moslashtirish strategiyasi qo‘llanadi. Masalan, *g‘ul* termini *qol* shaklida ifodalanadi. Bu holat o‘quvchiga qulay talaffuz yaratishga xizmat qilsa-da, terminning asl fonetik va grafik



xususiyatlari qisman o'zgarishiga olib keladi. Natijada, terminning lingvistik identifikatsiyasi zaiflashishi mumkin.

Bundan tashqari, *xandaq* termini tarjimasida sezilarli semantik tafovutlar kuzatiladi. U ayrim hollarda *ditch*, boshqa o'rinlarda *trench* yoki *moat* shaklida beriladi. Ushbu variantlar o'zaro ma'no jihatidan yaqin bo'lsa-da, ularning har biri turli darajadagi spetsifiklikni ifodalaydi. Masalan, *trench* harbiy kontekstda maxsus qazilgan himoya inshootini anglatrsa, *ditch* umumiyroq ma'noga ega bo'lib, harbiylik komponenti har doim ham aniq aks etmaydi. Bu esa tarjimada semantik aniqlik darajasining o'zgarib turishini ko'rsatadi.

Shuningdek, *masof urushmoq* termini tarjimasida ham semantik komponentlarning to'liq saqlanmasligi kuzatiladi. Asl matnda ushbu termin dushman bilan ochiq maydonda saf tortib jang qilishni bildirsa, tarjimalarda u *engage*, *engage in a pitched battle*, *engage the enemy* kabi variantlar orqali beriladi. Mazkur birliklarning aksariyati umumiy jang qilish ma'nosini ifodalasada, saf tortish, tartibli jang olib borish kabi muhim semantik komponentlar har doim ham to'liq aks etmaydi.

Umuman olganda, tahlillar shuni ko'rsatadiki, harbiy terminlarning tarjimasida uchta asosiy strategiya – transliteratsiya, leksik ekvivalent va izohli tarjima keng qo'llanadi. Har bir strategiya o'ziga xos afzallik va cheklovlarga ega bo'lib, tarjimon tanlovi ko'pincha kontekst, o'quvchi auditoriyasi va tarjimaning maqsadiga bog'liq bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, "Boburnoma"dagi harbiy terminlarning inglizcha tarjimalari murakkab va ko'p qatlamli lingvistik jarayonni tashkil etadi. Bu jarayonda terminlarning semantik aniqligini saqlash, tarixiy va madaniy kontekstni yetkazish hamda o'quvchiga tushunarli shaklda ifodalash o'rtasida muvozanatni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqot natijalari tarixiy matnlar tarjimasida terminologik muammolarni chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. "Boburnoma". – Toshkent: Sharq NMAK, 2002.
2. A. Beveridge. Memoirs of Babur. (Trans.). – London: Luzac & Co. 1921
3. Z. M. Bobur. Baburnama. (W. Thackston, Trans.). – Oxford University Press. 1996
4. Z. M. Bobur. The Baburnama: Memoirs of Babur, Prince and Emperor (J. Leyden & W. Erskine, Trans.). – London: Longman. 1826
5. H. Dadaboyev, H. Yodgorov. O'zbek tilining harbiy terminologiyasi. – Toshkent, 2021.



6. Department of Defense Dictionary of Military and Associated Terms (JP 1-02). – Washington, D.C.: U.S. Department of Defense, 2020.
7. G'afurov, M. (Ed.). O'zbek tilining izohli lug'ati (5 jildlik). – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti. 2006
8. Ishoqov F., "Boburnoma" uchun qisqacha izohli lug'at. – "Andijon nashriyotmatbaa" OAJ, 2008.

